


**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2024-YIL YANVAR-IYUL
(DASTLABKI MA‘LUMOT)**





Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyul oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi korxonalari tomonidan 11925,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 9795,5 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 82,1 % ni tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatning—20,1 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning—8,7 % ga o'sishi kuzatildi.


Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning—4,4 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish—25,2 % ga kamayish kuzatildi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash–tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 179,7 mlrd. soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 1,5 % ga toʻgʻri keldi.




*Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni
ishlashning jami sanoat ishlab
chiqarishi hajmidagi ulushi*



yanvar-iyul oylarida yirik korxonalar bo'yicha
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)

Ohaktosh



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyul	2024-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Ohaktosh, t.	102967,3	89170,3	-13797,0
Gaz kondensati, ming t.	37,5	33,0	-4,5
Tabiiy gaz, mln. kub.m	597,2	548,2	-49,0

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat bu–tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9795,5 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 82,1 % ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1% ni (2023-yilning yanvar-iyul oylarida—0,01%), o'rta-yuqori texnologiyali—45,7% (52,3%), o'rta-quyi texnologiyali — 7,6% (5,1%), quyi texnologiyali—46,6% (42,6%) ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi—46,5% (2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,1%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi—23,8% (2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,6%), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi—19,6% (2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,0%) ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi—4,7% (2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 123,3%), mebel ishlab chiqarishning ulushi—1,0% (2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 68,1%) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-iyul oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida 506,7 ming tonna portlandsement (2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 3,0 marta ko'paygan, 3,8 ming tonna o'simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar (2,2 marta ko'paygan), 0,9 ming tonna makaron mahsulotlari (41,9% ga ko'paygan), 27,4 ming tonna paxta tolasi (67,0 % ga ko'paygan), 24,9 ming tonna paxta chigiti (36,2% ga ko'paygan), 1854,9 ming litr aroq (1,2% ga ko'paygan), 4,9 ming tonna o'simlik yog'i (12,5% ga ko'paygan), 11,0 ming tonna kalava ip (7,1% ga kamaygan) hamda 23,5 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (33,4% ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyul	2024-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % li spirt	1833,0	1854,9	21,9
O'simlik yog'i, (tozalangan), t.	4381,2	4928,8	546,8
Portlandsement, t.	166827	506733	339906
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	35247,7	23476,4	-11771,3
Paxta tolasi, t.	16424,3	27434,1	11009,8

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, kimyo sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 45,7% bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 4,9% ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 4475,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o'rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,7 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 23,3 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 457,2 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish–yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.

2024-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 17,7 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,3 % ga o‘tdi va ishlab chiqarish hajmi 1732,3 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish–spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.

2024-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,9 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 110,1 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 188,1 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024-yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 21,4 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 14,9 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 2092,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-iyul oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,4 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 140,7 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 236,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish—rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 128,0 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 82,1 mlrd. so'm kuzatildi.



Mebel ishlab chiqarish

Mebel ishlab chiqarish—korxonalar hamda muassasalar, oshxonalar mebellarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.




2024-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi mebel ishlab chiqarish sanoatining ulushi 1,0 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 68,1 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 101,3 mlrd. so'm ekani kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash,

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar–kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1884,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 15,8 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 103,5 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 105,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyul	2024-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	3032,3	3139,8	107,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	26,4	27,9	1,5
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	71808,4	92958,2	21149,8




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish—qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 65,9 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % iga) to'g'ri keldi.


yanvar-iyul
mlrd. so'mda



0,6 %

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqir d'lamni yig'ish va utilitatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

yanvar-iyul
FHI, % da




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha 16,0 % ga hamda xavsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlarda 29,2 % ga, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 1,7 % ga o'sishi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyul	2024-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	5137,6	5223,8	86,2
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln.so'm	39040,6	45283,4	6242,8
Xavsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar mln.so'm	5751,5	7433,6	1682,1

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



 Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar

 Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra